XALQ DEPUTATLARI YOZYOVON TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr VI-69-135-11-165-K/22 Yozyovon tuman hokimligi

Yozyovon tumani bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-Farmonining 4-bandiga muvofiq tuman moliya bo‘limi va tuman davlat soliq inspeksiyasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” loyihasi bo‘yicha kiritgan takliflarini muhokama etib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga acocaн xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022 yil 9 dekabrdagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llash bo‘yicha 06/04-34/4103-xdfu-sonli xatiga ko‘ra, quyidagilar:

- yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2023 yilda 1,1 baravarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi;

- Yozyovon tumani uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yuridik shaxslarga 1 ga uchun 33,0 mln.so‘m va jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun 297,0 so‘m bazaviy soliq stavkasi belgilanishi ko‘zda tutilganligi;

- kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llashda keyingi yil mahalliy budjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo‘yicha tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlarini belgilash bo‘yicha tuman moliya bo‘limi va tuman davlat soliq inspeksiyasining qo‘shma taklifi maqullansin.

3. Mazkur qaror bilan:

- Yozyovon tumani hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun

yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari
1-ilovaga muvofiq,

- Yozyovon tumani hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari
2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

- Bunda, Soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2022 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

- tuman xalq deputatlari Kengashiga viloyat xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Yozyovon tuman hokimligi (D.Djalilov), tuman hokimligi moliya bo‘limi (S.Mirzayev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Axunov) 3 kun muddatda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan koeffitsientlarni maxalla fuqarolar yig‘inlariga yetkazilishini ta’minlasin.

5. Yozyovon tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Axunov) yer solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin.

6. Yozyovon tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Axunov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

- soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda o‘z vaqtida budjetga undirilishini nazoratga olib borish;

- tegishli budjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash;

yer solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borsinlar.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **D.T.Djalilov**

Xalq deputatlari Yozyovon tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-69-135-11-165-K/22-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so‘mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (1 ga uchun)
1	Yozyovon m.f.y	1,00	24 750
2	Baxor m.f.y	1,00	24 750
3	Navro‘z m.f.y	1,00	24 750
4	Tegirmonboshi m.f.y	1,20	29 700
5	Markaziy farg‘ona m.f.y	1,10	27 225
6	Qo‘rg‘oncha m.f.y	1,00	24 750
7	Ittifoq m.f.y	1,10	27 225
8	Beruniy m.f.y	1,10	27 225
9	Toshxovuz m.f.y	1,10	27 225
10	Guliston m.f.y	1,00	24 750
11	Yuqori soybo‘yi m.f.y	1,10	27 225
12	Soybo‘yi m.f.y	1,10	27 225
13	Takalik m.f.y	1,00	24 750
14	Xonobod m.f.y	1,10	27 225
15	Soyyoni m.f.y	1,10	27 225
16	Yoshlik m.f.y	1,00	24 750
17	Suvliariq m.f.y	0,90	22 275
18	Qorasoqol m.f.y	0,90	22 275
19	Yuqori m.f.y	1,10	27 225
20	Qatortol m.f.y	1,00	24 750

21	Ijodkor m.f.y	1,00	24 750
22	Istiqlol m.f.y	1,00	24 750
23	Qorasoy m.f.y	1,00	24 750
24	Taraqqiyot m.f.y	1,00	24 750
25	Cho‘lguliston m.f.y	1,00	24 750
26	Qoratepa m.f.y	1,10	27 225
27	Do‘stlik m.f.y	1,00	24 750
28	Guzarboshi m.f.y	1,10	27 225
29	Porloq m.f.y	1,00	24 750
30	Ishtirxon m.f.y	0,80	19 800
31	Gaston m.f.y	0,80	19 800
32	Yangiobod m.f.y	0,80	19 800
33	Yangibo‘ston m.f.y	0,70	17 325

Xalq deputatlari Yozyovon tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-69-135-11-165-K/22-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (1 kv uchun)
1	Yozyovon m.f.y	1,00	220,0
2	Baxor m.f.y	1,00	220,0
3	Navro‘z m.f.y	1,00	220,0
4	Tegirmonboshi m.f.y	1,20	264,0
5	Markaziy farg‘ona m.f.y	1,10	242,0
6	Qo‘rg‘oncha m.f.y	1,00	220,0
7	Ittifoq m.f.y	1,10	242,0
8	Beruniy m.f.y	1,10	242,0
9	Toshxovuz m.f.y	1,10	242,0
10	Guliston m.f.y	1,00	220,0
11	Yuqori soybo‘yi m.f.y	1,10	242,0
12	Soybo‘yi m.f.y	1,10	242,0
13	Takalik m.f.y	1,00	220,0
14	Xonobod m.f.y	1,10	242,0
15	Soyyoni m.f.y	1,10	242,0
16	Yoshlik m.f.y	1,00	220,0
17	Suvliariq m.f.y	0,90	198,0
18	Qorasoqol m.f.y	0,90	198,0
19	Yuqori m.f.y	1,10	242,0
20	Qatortol m.f.y	1,00	220,0
21	Ijodkor m.f.y	1,00	220,0

22	Istiqlol m.f.y	1,00	220,0
23	Qorasoy m.f.y	1,00	220,0
24	Taraqqiyot m.f.y	1,00	220,0
25	Cho‘lguliston m.f.y	1,00	220,0
26	Qoratepa m.f.y	1,10	242,0
27	Do‘stlik m.f.y	1,00	220,0
28	Guzarboshi m.f.y	1,10	242,0
29	Porloq m.f.y	1,00	220,0
30	Ishtirxon m.f.y	0,80	176,0
31	Gaston m.f.y	0,80	176,0
32	Yangiobod m.f.y	0,80	176,0
33	Yangibo‘ston m.f.y	0,70	154,0